



UO'K: 821.512.133.09-3

Feruza BURXANOVA,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Mohichehra XAMRAQULOVA,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi
E-mail: xamraqulovamohichehra1@gmail.com

Turon Fanlar Akademiyasi akademigi, professor M.Mirkomilov taqrizi asosida

YANGI DAVRNING ESKI OG'RIG'I

Annotatsiya

Maqolada O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani tahlili asosida totalitar tuzumning inson hayotiga ta'siri, yolg'on mafkuraga asoslangan siyosatning shaxs erkinligi va millat sha'niga yetkazgan zug'umlari fojiaiy ruhda yoritiladi. Asarda Rustam obrazi orqali shaxsning ichki kurashlari, psixologik holatlari, axloqiy tanlovlari, absurd voqealikdagi izzitoblari tadqiq etiladi. Afg'on urushi misolida Sovet Ittifoqining mustamlakachilik siyosati tanqid qilinib, bosqinchilikning milliy va insoniy fojiga aylangani ko'rsatilgan. Shuningdek, Mauzer va Komissar kabi obrazlar orqali mustabid tuzumning ichki mohiyati ochib berilib, inson huquqlarini poymol qilishning ko'amlari yoritilgan. Maqola asarning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy mazmunini chuqur tahlil qilgan holda uning zamonaviy ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sovet mafkurasi, totalitar tuzum, absurdizm, egzistensializm, Afg'on urushi, shaxs erkinligi, Vatan tushunchasi, jamiyat va tuzum, milliy manfaatlar.

THE PAIN OF THE OLD ERA IN THE NEW ERA

Annotation

The article focuses on the impact of the totalitarian regime on human life, the freedom of the individual of politics based on false ideology, and the glory of the nation in a tragic spirit, based on the analysis of the novel "Tushda kechgan umrlar" by Utkir Hashimov. Through the image of Rustam, the work explores the internal struggles of the individual, his psychological states, his moral choices, his anguish in absurd reality. He article focuses on the impact of the totalitarian regime on human life, the freedom of the individual of politics based on false ideology, and the glory of the nation in a tragic spirit, based on the analysis of the novel "Tushda kechgan umrlar" by Utkir Hashimov. Through the image of Rustam, the work explores the internal struggles of the individual, his psychological states, his moral choices, his anguish in absurd reality. The example of the Afghan war was the criticism of the Soviet Union's colonial policies, showing that the invasion had become a national and human tragedy. Also, through such images as Mauzer and the Mauzer, the inner essence of the regime was revealed and the scope of the violation of human rights was covered. The article shows the contemporary importance of the work with an in-depth analysis of its social, political and philosophical content.

Key words: Soviet ideology, totalitarian regime, absurdism, egzistensialism, Afghan war, freedom of personality, the concept of Homeland, society and order, national interests.

СТАРАЯ БОЛЬ НОВОЙ ЭПОХИ

Аннотация

В статье, основанной на анализе романа Уткира Хашимова "Тушда кечган умрлар", в трагическом духе освещается влияние тоталитарного режима на жизнь человека, гнев политики, основанной на ложной идеологии, на свободу личности и Честь нации. Через образ Рустама в произведении исследуется внутренняя борьба личности, ее психологические состояния, нравственный выбор, страдания в абсурдной действительности. статья, основанной на анализе романа Уткира Хашимова "Тушда кечган умрлар", в трагическом духе освещается влияние тоталитарного режима на жизнь человека, гнев политики, основанной на ложной идеологии, на свободу личности и Честь нации. Через образ Рустама в произведении исследуется внутренняя борьба личности, ее психологические состояния, нравственный выбор, страдания в абсурдной действительности. Пример Афганской войны критикует колониальную политику Советского Союза, показывая, что вторжение превратилось в национальную и человеческую трагедию. Также через таких персонажей, как Маузер и комиссар, раскрывается внутренняя природа деспотического режима и освещаются масштабы нарушения прав человека. Статья показывает современное значение произведения с глубоким анализом его социального, политического и философского содержания.

Ключевые слова: Советская идеология, тоталитарный режим, абсурдизм, экзистенциализм, Афганская война, свобода личности, понятие Отечества, общества и режима, национальные интересы.

Kirish. 80-yillar o'rtalarida yuz bergan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti, ma'naviyatidagi keskin o'zgarish, evrilishlar tufayli asr davomida shakllangan yangi o'zbek adabiyoti rivojida, barcha adabiy tur, janrlarda tub yangilanish jarayoni boshlandi[2]. Ayni jarayonning ko'zgusi o'laroq zamonaviy o'zbek adabiyotidagi muhim asarlardan biri, 90-

yillarda adabiyotimizdagi yangi yondashuvlarni va tahlilni o'zida mujassam etgan O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romani adabiy maydonga chiqdi. Roman totalitar tuzum, yolg'on mafkura, shaxs erkinligi va sha'ning yo'qotilishi, butun bir millatni yo'q qilishga qaratilgan qatag'on siyosatining fojiaiy tomonlarini yoritib beradi.

Romanning "Tushda kechgan umrlar" deb nomlanishi bir qancha talqinlarga ega. Birinchisi, Rustamning umri tushlarida kecha boshlagani, uning real hayotga begonalashuvi. Ikkinchisi, asar qahramonlarining orzulari, baxtli kelajakka bo'lgan umidlari va shodon hayotga bo'lgan ishonchlari, oxir-oqibat, tushdagi sarobga aylanishini ifodalaydi. Uchinchi esa qahramonlarning har bir muhim voqeasi, ularga tayyorlangan taqdiming tasavvurlari va hayotidagi o'zgarishlar, ularning tushlarida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi...[1] Ilk jumladagi mana shu ma'yus, mungli ohang asar davomida tovlanib, goh sokin, goh shiddatli tus olib vujud-vujudingizni qamrab oladi. Bu jumla faqat qahramon qismatidagina emas, asarda aks etgan davr, muhit, jamiyatga ham daxldor — darhaqiqat, o'sha yillari jamiyat bamisoli o'lim to'shagida yotgan bemordek talvasada[7]. Yozuvchining mahorati shu qisqa satrlarda namoyon bo'lgan. U bir jumlada jamiyatning bemor ekanligini ham, uni kasalmand qilgan tuzum o'lim yoqasida ekanligini ham ifodalay olgan.

Sovet mafkurasi XX asr jamiyatlariga eng kuchli ta'sir ko'rsatgan totalitar tuzumlardan biri sifatida tarixda qoldi. Ushbu mafkura shaxs erkinligini inkor etib, inson tafakkurini to'liq nazorat qilishga intildi. Nemis faylasufi Xanna Arendt totalitar davlatlarni shaxsiy hayotga aralashuv, mafkura orqali jamoatchilik ongini to'liq nazorat qilish, repressiyalar va zo'rvonlik vositasida jamiyatni bo'sundirish bilan tavsiflaydi. Sovet Ittifoqida aynan shunday boshqaruv shakli shakllanib, u barcha sohalarida o'z izini qoldirdi. Shaxsiyatga emas, jamoatchilik ongiga asoslangan tizim tuzildi. Bunday sharoitda inson o'zligini anglash, hayotining mohiyatini tushunish yo'lida absurd tafakkurga duch keladi. Alber Kamyu absurdizm nazariyasida insonning bu dunyoda ma'no izlashga intilishi va unga javob topa olmasligini asosiy muammo sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, hayotning absurdligi insonning unga yuklaydigan mazmuni bilan to'qnashganida yuzaga chiqadi[8]. Sovet mafkurasi ham inson hayotining tabiiy ma'nosini yo'qotib, uni davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi mexanizmga aylantirishga urindi. "Tushda kechgan umrlar" romanidagi Rustamning holati "absurd voqelik"ning tabiiy oqibatidir. Jamiyat shunday bosqichga kelganki, shaxs o'z yo'li, qadriyatlarini, kelajagini anglab yetishdan o'jiz qoladi. Rustamning iztiroblari ham shaxsning yo'lsizlik oldidagi o'jizligi, jamiyatning qaysidir ma'noda halokat sari ketayotganini anglash fojiasi bilan bog'liq.

Rustam "Tushda kechgan umrlar"da nafaqat tashqi dunyoda, balki ichki olamida ham murakkab va ko'p qirralarga ega obraz sifatida tasvirlanadi. U — nohaqlikka chiday olmaydigan, sodda, oriyatli, vijdonli o'zbek yigiti. Uning o'zini izlash, axloqiy tanlovlar va o'lim bilan kurashish kabi ruhiy jarayonlari asar davomida o'quvchiga chuqur falsafiy va psixologik savollarni taqdim etadi. Rustam obrazida ikki qarama-qarshi tomon bor: u bir tomondan qahramon, kuchli va qat'iyatli bo'lsa-da, ichki dunyosida qo'rquv va ishonchsizlik bor. Uning tashqi dunyoda ko'rsatayotgan kuchi, ichki qarama-qarshiliklar bilan to'lib-toshgan. Yashashning mohiyatini anglash yo'lidagi ayni kurashlar orasida u bu dunyoga "begona" bo'lib boraveradi. O'sha oy, o'sha yulduzlar... — Ammo barchasi begona...[1] (Rustam) Ha, oy ham, yulduzlar ham o'sha-o'sha edi. Lekin tuproq begona edi. Ular o'zlarining tuproqlarida emasdilar. Vatan tushunchasining mohiyati ayni shu joyda ochib berilgan. Xayriddinning gapi chuqurroq falsafaga ega: Ular bizga begona emas, biz ularga begonamiz![1] Ya'ni oy-u yulduzlar bizdan oldin ham bor edi, bizdan keyin ham bo'ladi. Biz bu dunyoda mehmonmiz. Aslida, begona bizmiz!

Sovet Ittifoqining mustamlaka xalqlarini harbiy mojarolarda, ayniqsa, Afg'on urushida foydalanishi uning imperiyaviy mohiyatining eng shafqatsiz ko'rinishlaridan biri bo'ldi. Bu strategiya XIX asrdan boshlab bosqinchilik siyosatini olib borgan imperiyalar uchun odatiy edi: bosib olingan hududlarning resurslari, shu jumladan, insoniy salohiyati ham markaziy hukumat manfaatlari yo'lida ishlatiladi. Sovet davlati ham o'z tarkibidagi milliy respublikalarni harbiy vosita sifatida ko'rdi va bu hududlardagi yoshlarni o'zining mafkuraviy va strategik maqsadlari yo'lida qurbon qilishga tayyor edi.

1979-yilda boshlangan Afg'on urushi bu siyosatni butun mohiyatini ochib berdi. Sovet armiyasining asosiy qismi Rossiya va Ukrainadan kelgan askarlardan iborat bo'lsa-da, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi mustamlaka hududlaridan ham minglab yoshlar safarbar qilindi. Afg'on urushida jami 64 500 o'zbekistonlik askar qatnashgan bo'lsa, ulardan 1500 nafari halok bo'lgan, 2500 nafari nogiron bo'lib qaytgan. Ko'pchilik esa ruhiy bosimdan aziyat kechib, o'zini jamiyatga begona his qilib umr kechirdi.

Sovet Ittifoqi ushbu urushni "internatsional yordam" sifatida ko'rsatgan bo'lsa-da, aslida bu strategik manfaatlarni himoya qilish va geosiyosiy ta'sirni kengaytirish maqsadida boshlangan bosqinchilik harakati edi. Afg'oniston Markaziy Osiyo respublikalariga yaqin joylashgani uchun bu hududlardan yollangan askarlar "o'z yurti kabi iqlim va geografiyaga moslashgan" degan bahona bilan oldingi chiziqlarga safarbar qilindi.

Mustamlaka xalqlari uchun ushbu urushning absurdligi ikki barobar og'ir kechdi. Birinchidan, ular o'zga davlatni bosib olishda qatnashishga majbur bo'ldilar, ya'ni bu urush ular uchun ma'nosiz edi. Ikkinchidan, ularning aksariyati musulmon bo'lib, aynan o'z diniga e'tiqod qilgan afg'on Mujohidlari bilan jang qilishga yuborildi. Shu sababli urush davomida ko'plab sovet askarlari o'ziga savol bera boshladi: "Men kim bilan va nima uchun urishyapman?" Dushman deb ko'rsatilgan afg'on Mujohidlari o'zlarini himoya qilayotgan insonlar edi, sovet askarlari esa bosqinchi sifatida ko'rilardi. Aynan mana shu tafovut ko'plab askarlarning ruhiy tushkunlikka tushishiga sabab bo'ldi.

Afg'onistonda xizmat qilgan Markaziy Osiyo askarlari mahalliy Mujohidlar tomonidan ham alohida e'tiborga olindi. Ularga nisbatan boshqacha munosabat shakllandi — "siz bu yerga o'z xohishingiz bilan kelganingiz yo'q, sizni hukumat majburlagan" degan tushuncha afg'onlar orasida keng tarqalgan edi. Ammo bu Markaziy Osiyo askarlarini urushdan asrab qola olmadi. Ko'plab o'zbek, qozoq va tojik yigitlari mahalliy jangchilarning asiriga tushdi yoki ommaviy hujumlar qurboniga aylandi.

Sovet Ittifoqi urushni oqlash uchun "internatsional burch" degan mafkuraviy terminni o'ylab topdi. Barcha fuqarolar urushga xuddi vatan himoyasidek borishlari lozim edi. Biroq urushdan qaytgan askarlar bu burchning yolg'on ekanini anglagan holda, ma'naviy bo'shliq bilan uyalariga qaytdilar. Jamiyat esa ularni qahramon sifatida kutib olmadi — aksincha, ularning ko'pchiligi ruhiy va jismoniy jarohatlar bilan yolg'izlikda qolib ketdi.

Sovet Ittifoqining mustamlaka xalqlardan foydalanish siyosati faqat Afg'on urushiga xos emas edi. Ikkinchi jahon urushida ham o'zbek, qozoq va qirg'iz yigitlari oldingi chiziqlarga yuborilgan, eng og'ir jang maydonlarida xizmat qilishga majburlangan. Bu urushlarda mustamlaka xalqlari askarlarining yo'qotish ko'rsatkichi rus va ukrainaliklarga qaraganda yuqori bo'lgani bejiz emas edi. Sovet generallari uchun mustamlaka xalqlarining harbiy xizmatga yaroqli erkaklari shunchaki raqam edi — ularni asrash yoki yo'qotish muhim emas edi.

Afg'on urushi bu siyosatning so'nggi va eng fojiali misollaridan biri bo'ldi. Sovet Ittifoqi bu urushga butun bir avlodning hayotini qurbon qildi. Mustamlaka xalqlari uchun esa bu urush mustaqillik sari yo'lining bir qismiga aylandi. 1991-yilda SSSR parchalangach, O'zbekiston va boshqa respublikalar sobiq ittifoqning harbiy strategiyalarini qayta baholay boshladi. Afg'on urushi haqidagi haqiqat fosh bo'ldi, urushda qatnashgan askarlar uchun yangi tarixiy yondashuv shakllandi.

Bugun orqaga nazar tashlaganda, Afg'on urushi nafaqat Sovet Ittifoqining bosqinchilik siyosati, balki uning mustamlakachilik mohiyatining ham ochiq ifodasi bo'lgani ayon bo'ladi. Mustamlaka xalqlari Sovet armiyasining askarlari emas, balki qurbonlari bo'ldi. Bu fojiaidan chiqarilgan saboqlar bugungi mustaqil davlatlarning o'z suvereniteti va milliy manfaatlarini himoya qilish borasida hushyor bo'lishining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Asardan olingan quyidagi parchalar yuqoridagi gaplarning isboti sifatida yangraydi go'yo:

“O'ylab qarasam, o'tgan umrim umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib- tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko'rib yuraverganman: Goh shirin, goh xatarli tush ko'rib. O'sha “birov” qayoqqa sudrasa, ketidan ergashib ketaverganman, nima buyursa, quloq qoqmay bajaraverganman... Uyg'onishga esa qo'rqanman... Mana endi, uyg'onib, yon-verimga qarasam menga o'xshaganlar ko'p ekan...”[1]

“Senlar o'zbekmi! — “Dux” yorilgan lablari orasidan qon tupurib, tishlarini g'ijirlatdi. — Yo'q! Senlar o'zbekmas! Senlar musulmonmas! — U esdan og'gandek xaxolab kuldi. — Senlar “sho'raviy!” Kim chaqirdi seni bu yerga! O'z yurtningni sotib bo'lib, endi Afg'onni ham harom qilmoqchimisani? To'ng'iz!”[1]

Bahor — barchaga baravar! Shohona saroylar oldidagi gulzor nima, go'ristonda ma'yus do'ppaygan qabrlar nima — tanlab o'tirmaydi. Hammasini bir tekis maysalarga burkaydi. Ko'klam quyoshi ro'parada, dovon tomonida turib bizlarga reaktiv snaryad otayotgan “dux”ning boshidan qancha mo'l-ko'l nur sochsa, dushmani tankdan o'qqa tutayotgan bizning boshimizdan ham shuncha nur sepaveradi. Bahor shabadasi bizning yuzimizni qanchalik erkalab siypalasa, ularniyam shunchalik siylayveradi... Bahor — urushni tan olmaydi[1]! Urush ham yosh-u qarini, erkak-u ayolni, kuchli-yu kuchsizni tan olmaydi.

Asardagi Komissar obrazi esa o'zini mustabid tuzum, totalitar rejim mafkurasi, siyosati qalqoni va qilichi sifatida ish ko'radigan sifatida ko'radigan, o'zining hukumat oldidagi yolg'on mavqeyini saqlab qolish uchun hammadan gumonsiraydigan, eng jirkanch tuhmatlarni sodda odamlarning bo'yniga iladigan razil shaxs. O'zini nazorat va tazyiqni o'zida mujassam etuvchi chekist sifatida ko'rishi uning o'z qudratiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Sodaroq qilib aytganda, chekist bo'lish unga jamiyatga va undagi o'zgarishlarga ko'proq ta'sir o'tkazish imkoniyatini beradi. Shuningdek, Soatning boshqa odamlar ustidan kuch ishlatish imkoniyatini kengaytiradi. Soat xalqni faqat resurs sifatida ko'radi, odamlarning erkinliklari va huquqlari unga umuman qiziq emas. “Ijtimoiy faoliyati” ortida o'zi ham mustabid tuzumning resursi bo'lib qolganligini, vatanini, millatini, oilasini yo'qotganining o'zi inson uchun fojia ekanligini anglamaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yozuvchining yana bir muvaffaqiyatli yaratilgan obrazi Mauzer G'aniyevdir. Mauzer ismi Mauzer avtomatiga ishora qiladi. Mauzer avtomati birinchi jahon urushi va keyinchalik Sovet Ittifoqida ham keng qo'llanilgan mashhur qurol bo'lib, u o'z kuchi va ta'siri bilan tanilgan. Komissarning o'g'liga bu ismni berishi mustabid tizimga xizmat qilishdagi roli bilan chambarchas bog'liq. U

o'g'lini xuddi qo'lidagi quroldek ko'radi, unga mustabid mafkuraning g'oyalarini singdirib, o'zidan ham shafqatsiz avlod yaratmoqchi bo'ladi. Ammo Mauzer asarda tuzum haqiqatini anglagan va uni yoqlamaydigan shaxs sifatida gavalantirilgan. Mauzer obrazi haqida gapira turib yozuvchining keskin so'zlari, o'ylari ayni qahramon tilidan chiqqanini e'tiborga olmaslik imkonsiz. 1984-yil 23-iyunda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining “tarixiy” XVI plenumi bo'lib o'tdi. Unda markazdagi Y. va uning maslakdoshlari ko'rsatmasi bilan tayyorlangan dokladda respublika rahbar xodimlari va huquqni himoya qilish organlari ishida zudlik bilan shafqatsiz ravishda bartaraf qilish lozim bo'lgan jinoyat mavjudligi ta'kidlandi. Markaz tomonidan T. Gidlyan va Ivanov rahbarligida yuborilgan tergov guruhi hech kim bilan hisoblashib o'tirmay odamlarni qamash bilan shug'ullandi. Oddiy dehqondan tortib O'zbekiston Kompartiyasi MQ kotiblari va hukumat a'zolarigacha bo'lgan xodimlarni qamash uchun birovlardan zo'rlab yozdirib olingan bir parcha qog'ozning o'zi kifoya edi. O'zbekistonda qonunchilik buzildi, o'zboshimchalik va qatag'onchilikning yangi davri avj oldi. Ming-minglab iqtidorli, rahbarlik mahoratini puxta egallagan rahbar kadrlar, mirishkor paxtakorlar, ter to'kib mehnat qilgan halol kishilar qamoqqa olindi. Hibsga olingan respublika partiya va davlat organlarining rahbarlari esa Moskva qamoqxonalari tashlandi. Tergov xodimlari 30-yillarda ishlatilgan yaramas usullardan foydalanib, hibsga olinganlari qiynab, boshqalar ustidan to'qilgan aybnomalarni ularning qo'li bilan qaytadan yozdirib olardi va bu “aybno” tobora ko'p begunoh odamlarni qamashga asos bo'lib xizmat qilardi. Umuman, “Paxta ishi” (“O'zbek ishi”) “jinoyat” ishi bo'yicha jami 25 mingga yaqin kishi qiynoq ostiga olinib, so'roq qilindi. 4,5 mingdan ko'proq kishi sud qilinib, turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi. Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi[4]. Mauzer tomonidan “O'zbek ishi haqiqatan o'zbekning ishi” sarlavhali maqolaning yozilishi mazkur siyosatning tub mohiyatini bitta gap bilan ifoda etilishidir.

Tahlil va natijalar. “Tushda kechgan umrlar” romani 1990-yillar adabiyotida yangi yondashuvlarni, absurdizm, ekzistensializm kabi falsafiy oqimlarni adabiy jarayonga tatbiq etgan muhim asarlardan biridir. Roman Sovet Ittifoqining totalitar tuzumi va undagi ideologik repressiyalarni, shaxs erkinligi va millatning iztiroblarini yoritishga intiladi. Rustam obrazining iztiroblari, uning shaxsiy qismati orqali jamiyatning ichki qarama-qarshiliklarini, absurd hayot bilan yuzma-yuz bo'lishini aks ettiradi. Uning o'zligini izlash va ma'no izlashdagi kurashi roman davomida o'quvchiga chuqur falsafiy savollarni taqdim etadi.

Roman, shuningdek, Sovet Ittifoqining mustamlaka xalqlari va Afg'on urushi kabi voqealar orqali o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy muammolarini va ularning inson hayotiga ta'sirini ko'rsatadi. Urushning absurdligi, odamlarning ichki kurashlari va bir-biriga begona his qilishlari asarda aks etgan. Afg'on urushining markaziy osiyoliklar uchun noxush oqibatlari, ular o'sha urushga majburan yollangan yigitlarning ruhiy va jismoniy holati romanning asosiy mavzularidan biridir.

Xulosa va takliflar. Yozuvchi o'sha davr siyosatining asoratlarini, ko'plab iqtidorli insonlarning qurbon bo'lishini va jamoatchilikning zulmga qarshi ayblovlari ko'rsatgan. Asar nihoyasida, Sovet Ittifoqining o'z imperiyaviy siyosatini amalga oshirganligi va mustamlaka xalqlari uchun qanday fojialarga olib kelganini anglash, mustaqil davlatlarning o'z suverenitetini himoya qilishining muhimligini ta'kidlaydi.

“Tushda kechgan umrlar” romani faqat o‘zbek adabiyotining emas, balki XX asrda yuz bergan siyosiy va ma’naviy inqirozlar, inson ruhiyatining murakkabliklarini tasvirlashdagi noan’anaviy yondashuvlari bilan ham

ahamiyatlidir. Bu asar jamiyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, ma’naviyatni, insoniyatning hayotga nisbatan tutgan pozitsiyasini o‘rganish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar (Roman). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002. – B. 240.
2. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 106.
3. Romanning yangi umri (professor U.Normatov bilan suhbat) Dilmurod Quronov.
4. <https://tarix.sinaps.uz/lugat/paxta-ishi-o%CA%BBzbek-ishi/>
5. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/975>
6. Yo‘ldoshev A. Adabiyot va hayot falsafasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 256 b.
7. Romanning yangi umri (professor U.Normatov bilan suhbat) Dilmurod Quronov.
8. Альбер Камю. Бегона, Вабо. – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2020. – Б. 464.